



Matlyuba XADJAMURATOVA,

Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

BuxDU dotsenti, PhD Axmedova Mehrinigor Bahodirovna taqrizi asosida

TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni intellektual salohiyatini oshirish borasida davlatning innovatsion siyosati natijasida huquqiy asos yaratilib, yillar davomida takomillashtirilib, imkoniyatlarni kengayishiga xizmat qilayotgani bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, qonun, davlat, huquq, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy himoya, imkon.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА МОЛОДЕЖИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ДЕЛАНИЮ

Аннотация

В данной статье констатируется, что в результате инновационной политики государства в сфере социальной защиты молодежи и повышения ее интеллектуального потенциала за прошедшие годы создана и совершенствуется правовая база, которая служит расширить возможности.

Ключевые слова: Молодежь, закон, государство, право, образование, воспитание, социальная защита, возможности.

SOCIAL PROTECTION OF YOUTH AND EDUCATION SYSTEM INNOVATIVE APPROACH TO DOING

Annotation

In this article, it is stated that as a result of the innovative policy of the state regarding the social protection of young people and the improvement of their intellectual potential, a legal framework has been created and improved over the years, which serves to expand opportunities.

Key words: Youth, law, state, right, education, upbringing, social protection, opportunity.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar[1] olib borildi.

Mustaqillik tarixida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni intellektual salohiyatini oshirish borasida davlatning innovatsion siyosati natijasida huquqiy asos yaratildi. Jumladan, ta'limga oid uch marta qonun qabul qilindi:

Tahil va natijalar. Birinchisi 1992 yil 2 iyulda, ikkinchisi 1997 yil 29 avgustda, uchinchi qonun esa 2020 yil 23 sentyabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun" qabul qilindi. Birinchi qonun demokratik davlatning dastlabki siyosatidagi huquqiy asos sifatida ta'lim huquqini kafolatlagan bo'lsa, 1997 yildagi qonun esa dunyoning ilg'or ta'lim tizimiga integratsiyalashuvni boshlab berdi, kadrlar tayyorlashning milliy xususiyatlariga e'tibor kuchaytirildi, uchinchi 2020 yildagi qonunda esa yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor, kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi, eng avvalo ijtimoiy davlatga qo'yilgan talablarni o'zida namoyon etdi.

Yangi O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni yoshlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha ko'lam, mohiyati va qamrovining kengligi bilan dastlabki qonunlardan farqlanadi. Birinchi qonun 44-moddadan, ikkinchi qonun 34 moddadan iborat bo'lsa, 2020 yildagi qonun 75-moddani o'z ichiga oldi. Yangi qonunning o'ziga xosligi, unda xalqaro shartnomalarga munosabat masalasi yoritilgan. Shuningdek, uning 2-moddasi "Ta'lim to'g'risidagi qonunchilik" deb nomlangan bo'lib, ushbu sohaga xizmat qiluvchi O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun osti hujjatlari inobatga olingani bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili. 2020 yilda qabul qilingan qonunning 3-moddasida ushbu sohaga oid asosiy tushunchalarga izoh berilgani bilan avvalgi qonunlardan farqlanadi, ya'ni davlat akkreditatsiyasi, davlat ta'lim muassasasi, DTS, ta'lim talablari, malaka, mutaxassislik, nodavlat ta'lim tashkiloti, tarbiya, ta'lim, ta'lim kampusi, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi jarayonlari qonuniylashtirildi.

Yangi qonunning 4-moddasida "Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar"ning 16 turi keltirilgan. bo'lib, Birinchi qonunning 3 moddasida 13ta prinsiplar, ikkinchi qonunning 3-moddasida 10 ta prinsiplar keltirilgan.

Ushbu prinsiplarning dastlabki qonunlardagi prinsiplardan farqi shundaki, unda ta'lim shaklini tanlash erkinligi, kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi, ta'lim tizimida davlat va boshqaruvning uyg'unligi, ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ham inobatga olinganidir. Ushbu prinsiplar bilan birga 1997 yilda qabul qilingan qonunda o'qituvchi va murabbiylarni ijtimoiy himoya qilish kafolati prinsipi mavjud bo'lmagan. Yangi O'zbekiston qonunida keltirilgan prinsiplarning ko'lam va talablarining ustun kelishi bu zamonning ildamlab borishi, ehtiyojlarning ortib borishi hamda yillar davomida to'plangan ilg'or tajribalarning natijasi sifatida izohlanadi.

Yangi qonunning 5-moddasi "Ta'lim olish huquqi" deb nomlangan. Unga ko'ra Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ushbu moddada keltirilgan ta'lim olish huquqi avvalgi qonunlarda ham belgilangan, lekin innovatsion faoliyatni

qo'llab-quvvatlash va dasturlarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta'lim olish, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish[2] kabi huquqlarning dastlabki qonunlarda mavjud emasligi, yillar davomida internetdan foydalanish imkoniyati va ehtiyojini ortib borishi, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojini qonunlarda aks etishi bilan izohlanadi.

Demak, insoniyat tomonidan yaratilgan har qanday ixtiro, yangilik va qulayliklar davlat qabul qilgan qonunlar asosidagina jamiyat hayotiga tadbiiq etiladi. Buni anglagan holda, xalqaro tajribalarni o'rganish, ijobiy yangiliklarni jamiyat hayotiga vaqtida tadbiiq etish ham davlatning innovatsion siyosatining ijobiy yondoshuvidan biridir.

O'zbekistonda shaxsni ta'lim olishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar uni kelajagini ta'minlashga, iqtidorini namoyon etishiga, ma'lum kasb egasi bo'lishiga, o'zini mablag' bilan ta'minlashiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga, jamiyatning bir bo'laki sifatida uning rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shishiga bo'lgan imkoniyatlar hisoblanadi. Shuningdek, yetarli ta'lim-tarbiya olgan shaxs o'zining intellektual salohiyati, kasb-kori, ma'naviy dunyoqarashi, jamiyatda o'zini tutish madaniyati, faol fuqarolik pozitsiyasi bilan davlat va jamiyat rivojiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladi. Inson kapitaliga yetarlicha e'tibor berilsa, u nafaqat davlat, balki jahon ilm-fan rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan darajaga yetadi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya kechiktirib bo'lmaz, uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Darhaqiqat, yangi O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida umumiy o'rta ta'lim bosqichlari ajratilgan. Shuningdek, ushbu qonunda avvalgi qonunlardan farqli ravishda Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi[2], deb aniq muddat belgilandi. Ushbu moddaga ko'ra o'smirlar 7-sinfni tamomlaganlaridan keyin tayanch o'rta ta'lim negizida ularni kasb-hunarga yo'naltirish uchun professional ta'lim ham joriy etilgan.

O'rta ta'limda o'quvchilar davlat dasturlari asosida kerakli bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lib, keyingi ta'lim turini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar, ushbu jarayonlarda ma'lum kasblarni egallashiga ko'niktirib boriladi. O'n bir yillik umumiy o'rta ta'lim majburiy bo'lib, uzluksiz ravishda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi, sinflarda o'quvchilarning maksimal soni 35 nafar etib belgilandi.

Respublikamizda maktab tizimi sohasida amalga oshirilgan islohotlardan biri sifatida o'quvchilar, ota-onalar, pedagoglarning takliflari inobatga olinib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. O'quvchilar 9-sinfni bitirib, litsey, kollej, shuningdek 11 yillik ta'limning 10-11 sinflarida o'qishlarini davom ettirishlari mumkin.

O'quvchilar 9 yillik tayanch o'rta ta'limni tamomlaganlaridan so'ng o'rta maxsus ta'limni akademik litseylarda davom ettirishlari ham mumkin. Ushbu yo'nalishlar, to'lov-shartnoma bo'yicha nodavlat ta'lim muassasalarida olib boriladi. O'quvchilarni ta'lim olish jarayoni ularning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, chuqur, tabaqalashtirilgan holda kasb-hunarga yo'naltiriladi.

Bu borada yurtimizda mutlaqo yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratilganini ta'kidlash lozim. Ushbu maktablarda ta'lim olayotgan ko'plab o'quvchilar nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqdalar. Bunday zukko va bilimdon farzandlarimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi[3].

Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash, yosh iste'dodlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni

tayyorlash va nashr etishdagi muammolarni bartaraf qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, umumta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi[4] tashkil etildi.

Prezident maktablari xalq ta'limi vazirligining hududiy organlari huzuridagi Abdulla Oripov, Hamid Olimjon va Zulfiya, Muhammad Yusuf, Ibroyim Yusupov, Erkin Vohidov, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy, Halima Xudoyberdieva va Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktablari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi ... O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab hamda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati va Abu Ali Ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati[4] hisoblanadi. Ushbu maktablarning har bir sinfi uchun o'quvchilar 20 nafar etib belgilandi. Ijodiy tanlovlar, test sinovlari kabilar asosida 7-sinflarga qabul amalga oshiriladi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi[5].

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar va talabalarni jismonan sog'lomlashtirish ta'lim muassasalarining ustun vazifasi sifatida belgilandi. Har yili maktabgacha tarbiya muassasalari va o'quv yurtlari bolalar va o'quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi ko'rikdan o'tkazilib, maktablarda jismoniy tarbiyadan imtixonlar o'tkazib borildi.

Hududlarda sport maktablari, klublar va maktabdan tashqari boshqa muassasalar tashkil etilib, pul bilan ta'minlandi. Umumta'lim maktablarida qo'shimcha sport mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish tadbirlariga ham homiylik ko'rsatildi. Agar ta'lim muassasalarini qurish yoki ta'mirlash ishlari olib boriladigan bo'lsa, u yerda ishlovchilar, tarbiyachilar, o'quvchilar soniga qarab sog'lomlashtirish va sport inshootlari bilan ta'minlanmaguncha iste'molga kiritilishiga yo'l qo'yilmadi.

Nuqsoni bo'lgan, davolanishga muhtoj bolalarni uyda ta'lim olishlariga sharoit yaratilgan. Shuningdek, yetim va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar tarbiyasi uchun 19 ta Mehribonlik uyi va 3 ta bolalar[6] shaharchasi faoliyati ta'minlandi. Alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalarning ta'limi 2 ta ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasida[6] amalga oshirildi.

Shuningdek, 14-moddada avvalgi qonun moddalaridan farqli ravishda Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at

maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi[2], - deb aniqlashtirib qo'yilgan.

Bolalarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish imkonini yaratilgan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari («Barkamol avlod» markazlari) faoliyati yo'lga qo'yilgan. «Barkamol avlod» markazlarida 5 540 ta to'g'arak tashkil etilgan va ularga 143 ming nafarga yaqin bolalar qamrab olingan. Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim tizimida boshlang'ich kasb-hunar ta'limi joriy etilgan bo'lib, 51 turdagi ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablarida 1 748 ta o'quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etilgan. Xalq ta'limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat[6] faoliyati ta'minlandi.

Chunonchi, yangi qonunning 15-22-moddalarida ta'lim olish shakllari va ular qaerlarda, nima maqsadda tashkil etilishi haqidagi ma'lumotlar berilgani bilan avvalgi qonunlardan farqlanadi.

Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste'dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o'qitish tizimini tashkil qilish, o'sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko'p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda.

Qonunning 38-moddasiga ko'ra ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilishda ham katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda ishtirokchilarga teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipiga asoslanadi. Lekin, ayrim toifadagilarga qonunlarga asoslanib imtiyozlar beriladi. Masalan, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga o'z ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi. Ayrim ta'lim tashkilotlariga (oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o'qishga qabul qilish tanlov asosida

amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish davlat granti va (yoki) to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi[2].

Nogironligi bo'lgan shaxslarni barcha ta'lim turlaridan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari asosida kafolatlanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga ta'lim berish, ularni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish turli shakllarda, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda, eksternat shaklida, shuningdek masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda, umumiy tipdagi ta'lim muassasalarida va tashkilotlarida, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, uyda, maxsus guruhlarda, sinflarda va yakka tartibdagi o'quv rejalarini bo'yicha o'qitish yo'li bilan amalga oshiriladi[7].

Nogironligi bo'lgan shaxslarning maktabdan tashqari ta'limi bolalar, o'smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlarida, «Barkamol avlod» bolalar maktabida, bolalar-o'smirlar sport maktablarida, bolalar musiqa va san'at maktablarida, studiyalarda, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalarida amalga oshiriladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining ikki foizi miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi[7].

Xulosalar.

1. Umumiy o'rta ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblanib, uni

Ta'lim tizimini takomillashtirishning institutsional tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

2. Nogironligi bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar singari ta'limning barcha turlaridan foydalanish huquqini ta'minlashning huquqiy-tashkiliy choralari ko'rildi.

4. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini rivojlantirish konstitutsiyaviy asoslangani, qonunchilikda mustahkamlangani bu sohada bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirilishiga yo'l ochib berdi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. /O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 156-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5194/0032-son; 16.10.2017 y., 06/17/5204/0114-son, 05.07.2019 y., 06/19/5759/3385-son, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022 y., 07/22/241/0408-son.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. 2020 yil 24 sentyabr. 637-son. /Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.
3. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. –B. 253.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09 sentyabr 2019 yil. PF-5815-son. /Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.09.2019 y., 06/19/5815/3717-son.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. 2020 yil 24 sentyabr. 637-son. /Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.
6. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. /Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021 y., 06/21/6268/0700-son; 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son.
7. O'zbekiston Respublikasining «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi qonun. 2021 yil 16 yanvar. O'RQ-641-son. /Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020 y., 03/20/641/1389-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 07.06.2022 y., 03/22/775/0477-son.